

Emotsional nutq fenomenining lingvistik tabiatining nazariy talqini

Xulkaroy Uktamovna Davlatova
Andijon davlat chet tillari instituti
Gulnoza Abdumutalibovna Atajanova
Turon universteti Andijon filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqning tilshunoslikdagi o'рни, mohiyati va nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Emotsional nutq inson kommunikatsiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda shaxsning ichki hissiyoti, ruhiy holati va munosabati til vositalari orqali ifodalanadi. Tadqiqotda emotsional ifodalarning lingvistik xususiyatlari, ularning semantik, pragmatik va uslubiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, emotsional nutqning inson tafakkuri va psixologiyasi bilan bog'liqligi ham yoritiladi. Mazkur ishda emotsional birliklarning nutqdagi vazifasi, ularning kommunikativ ta'sirchanlikni oshirishdagi roli ham ko'rib chiqiladi. Emotsional ifodalar insonning ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalash bilan birga, tinglovchiga ma'lum hissiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida emotsional leksika, frazeologik birliklar, undovlar, takrorlar, metaforalar va sintaktik vositalarning emotsional ma'no hosil qilishdagi o'рни tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: nutq, emotsiya, nazariya, tadqiqot, nutqiy birlik, mimika, hissiy, semantic, ifoda, takror, undov

Theoretical interpretation of the linguistic nature of the phenomenon of emotional speech

Khulkaroy Uktamovna Davlatova
Andijan State Institute of Foreign Languages
Gulnoza Abdumutalibovna Atajanova
Andijan branch of Turan University

Abstract: This article is devoted to the study of the role, essence and theoretical foundations of speech in linguistics. Emotional speech is an important component of human communication, in which the inner feelings, mental state and attitude of a person are expressed through language. The study analyzes the linguistic characteristics of emotional expressions, their semantic, pragmatic and methodological aspects. It also highlights the connection of emotional speech with human thinking and psychology. This work also considers the function of emotional

units in speech, their role in increasing communicative effectiveness. Emotional expressions, along with expressing a person's positive or negative attitude, have a certain emotional impact on the listener. During the study, the role of emotional lexicon, phraseological units, exclamations, repetitions, metaphors and syntactic means in creating emotional meaning is analyzed. In particular, the importance of intonation, facial expressions and gestures in emotional speech is also assessed as an important factor.

Keywords: speech, emotion, theory, research, speech unit, mimicry, emotional, semantic, expression, repetition, exclamation

KIRISH. Emotsional nutq zamonaviy tilshunoslik, psixologiya hamda kommunikatsiya fanlari kesishmasida shakllangan murakkab ilmiy fenomen sifatida qaraladi. Insonning kundalik muloqot jarayonida hissiy holatni ifodalash markaziy kommunikativ vazifalardan birini bajaradi va bu holat nutqning barcha darajalarida turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Shu bois emotsional nutq nafaqat til birliklarining semantik mazmuni, balki ularning real nutqiy vaziyatdagi aktualizatsiyasi, intonatsion qurilishi, urg‘u tizimi, pauza va ritmik tashkil topishi kabi prosodik omillar bilan ham chambarchas bog‘liq kompleks tizim sifatida talqin etiladi. An‘anaviy lingvistik tadqiqotlarda asosiy e‘tibor ko‘proq nutqning referensial va strukturaviy xususiyatlarini tavsiflashga qaratilgan bo‘lsa¹, zamonaviy ilmiy paradigmada emotsional-ekspressiv komponentning kognitiv va kommunikativ ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, antropotsentrik yondashuvning rivojlanishi natijasida til inson omili bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinib, emotsiya va nutq o‘rtasidagi munosabat markaziy tadqiqot obyektlaridan biriga aylangan.

Emotsional nutqning lingvistik tabiati ko‘p qatlamli tizim sifatida namoyon bo‘lib, u fonetik darajada intonatsiya va tovushning ekspressiv imkoniyatlari orqali, leksik darajada esa emotsional bo‘yoqdor so‘zlar va ekspressiv birliklar orqali ifodalanadi². Grammatik sathda turli sintaktik konstruktsiyalar, inversiya, ellipsis hamda takroriy shakllar emotsional yuklamani kuchaytirish vazifasini bajaradi. Diskursiv darajada esa nutqning umumiy kommunikativ strategiyasi, adresant va adresat o‘rtasidagi psixologik munosabat emotsional mazmunning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

ASOSIY QISM. Sun‘iy intellekt tizimlarida tabiiy nutqni modellashtirish kabi yo‘nalishlarda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan emotsional nutq fenomenini zamonaviy integrativ lingvistikaning dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri

¹ Scherer, K. R. Vocal communication of emotion: A review of research paradigms. *Speech Communication*, 40(1-2), 2003. 227-256.

² Juslin, P. N., & Laukka, P. Communication of emotions in vocal expression and music performance: Different channels, same code? *Psychological Bulletin*, 129(5), 2003. 770-814

sifatida qaraladi. Emotsional nutqning nazariy asoslari bir necha fundamental ilmiy yondashuvlar asosida shakllangan bo'lib, ularning har biri mazkur fenomenning muayyan jihatini yoritishga xizmat qiladi. Xususan, psixologik yondashuv emotsiyalarning psixik tabiatini, ularning paydo bo'lish mexanizmlarini hamda nutqiy faoliyatda verbal ifodalanish jarayonini tahlil qiladi³. Ushbu yo'nalish doirasida emotsiya inson ongidagi affektiv holat sifatida qaralib, uning nutqga ko'chishi psixik jarayonlar bilan bevosita bog'liq kompleks mexanizm sifatida talqin etiladi. Lingvistik yondashuv esa emotsional mazmunning til tizimida kodlanishi, uning turli sathlarda - fonetik, leksik, morfologik va sintaktik darajalarda - ifodalanish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Bu yondashuvga ko'ra, emotsional semantika til birliklarining oddiy referensial funksiyasidan tashqari, ularning pragmatik va ekspressiv imkoniyatlari orqali aktualizatsiya qilinadi va real kommunikativ vaziyatda yangi ma'no qatlamlarini hosil qiladi.

Emotsional nutqni lingvistik jihatdan ifodalashda prosodik vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Prosodiya tushunchasi nutqning intonatsion tuzilishi, ritmik tashkiloti, urg'u tizimi, temp (tezlik), tovush balandligi va dinamik o'zgarishlarini o'z ichiga oluvchi murakkab fonetik hodisa sifatida qaraladi⁴. Mazkur sohadagi tadqiqotlarda ilgari surilgan konseptual qarashlar alohida ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, u emotsional konseptlarning madaniy determinantlarga bog'liqligini asoslab bergan⁵. Uning fikricha, turli tillar va madaniy muhitlarda emotsiyalarning verbal ifodalanishi hamda konseptual strukturasi sezilarli darajada farqlanadi, bu esa emotsional nutqning universal emas, balki madaniy jihatdan shartlangan fenomen ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, grammatik sathda emotsional nutqning ifodalanishi maxsus sintaktik konstruktsiyalar orqali amalga oshadi. Undov gaplar, emotsional yuklamaga ega bo'lgan inversiyalar, takroriy strukturalar hamda ellipsis hodisalari nutqning ekspressivligini kuchaytiruvchi muhim grammatik vositalar sifatida xizmat qiladi. Ushbu birliklar nutqning faqat strukturaviy emas, balki pragmatik-emotsional yukini ham oshirib, kommunikativ ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Noverbal kommunikatsiya sohasiga oid ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, inson muloqot jarayonida mimika, jestlar, tana holati va boshqa kinesik vositalar nutqning verbal komponenti bilan uzviy va funksional jihatdan bog'langan murakkab semiotik tizimni tashkil etadi⁶. Ushbu holat emotsional nutqning faqat lingvistik birliklar orqali emas, balki multimodal kommunikativ struktura sifatida ham amalga oshirishini asoslaydi.

³ Изард, К. Е. Психология эмоций. Санкт-Петербург: Питер. 2000.

⁴ Светозарова, Н. Д. Интонационная система русского языка. Ленинград: Издательство Ленинградского университета. 1982.

⁵ Wierzbicka, A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. Cambridge: Cambridge University Press. 1999

⁶ Ekman, P., & Friesen, W. V. Unmasking the Face: A Guide to Recognizing Emotions from Facial Clues. Los Altos: Malor Books. 2003.

MUHOKAMA/NATIJJALAR. Emotsional nutqning pragmatik tabiati kommunikativ maqsadga erishish jarayonida emotsiyalarning strategik qo'llanilishi bilan bevosita bog'liqdir. Bu jihatdan tadqiqotchilar Caffi va Janney tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular emotsional ifodaning ikki asosiy shaklini farqlaydi⁷:

birinchisi - nutq jarayonida emotsiyaning tabiiy, spontan tarzda yuzaga chiqishi;

ikkinchisi esa - emotsiyalarning ongli ravishda tanlangan kommunikativ strategiya sifatida maqsadli qo'llanilishidir. Ushbu yondashuv emotsional nutqni nafaqat psixologik holatning ifodasi, balki kommunikativ ta'sirni boshqaruvchi pragmatik vosita sifatida ham talqin qilish imkonini beradi.

Madaniyatlarning muloqot kontekstida emotsional nutqning xususiyatlari yanada murakkab tus olganligi bois, turli lingvomadaniy muhitlarda emotsiyalarning ifodalanish intensivligi, ularning ijtimoiy maqbullik darajasi hamda interpretatsion modellari sezilarli darajada farqlanadi⁸. Bu esa emotsional ifodaning universal emas, balki madaniy-kognitiv determinantlarga bog'liq holda shakllanishini ko'rsatadi va uning pragmatik talqinini yanada chuqurlashtiradi. Zamonaviy texnologik taraqqiyot, xususan, sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi sohalarining rivojlanishi emotsional nutqni avtomatik aniqlash, tahlil qilish va sintez qilish yo'nalishlarida sezilarli ilmiy natijalarga erishish imkonini yaratdi⁹. Ushbu jarayon emotsional nutq xususiyatlarini formal modellarga solish, ularni algoritmik ifodalash hamda mashinaviy qayta ishlashga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Natijada, emotsional nutq fenomeni zamonaviy lingvistika va kompyuter fanlari integratsiyasida shakllanayotgan interdisiplinar tadqiqot obyektiga aylanib, uning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Emotsional nutq fenomenining lingvistik tabiatini yoritishda bir qator fundamental xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchidan, emotsional nutq o'z mohiyatiga ko'ra multimodal yoki ko'p kanalli kommunikativ tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, u bir vaqtning o'zida verbal (leksik-grammatik birliklar), vokal (prosodik, intonatsion parametrlar) hamda vizual (mimika, jest, tana harakati) kanallar orqali integrativ tarzda ifodalanadi. Bunday ko'p qatlamli ifoda tizimi kommunikativ jarayonning ta'sirchanligini oshirib, adresat tomonidan axborotning nafaqat semantik, balki emotsional-pragmatik jihatdan ham to'liq va adekvat qabul qilinishini ta'minlaydi. Shu jihatdan emotsional nutqni

⁷ Caffi, C., & Janney, R. W. Toward a pragmatics of emotive communication. *Journal of Pragmatics*, 22(3-4), 1994. 325-373.

⁸ Мацумото, Д., & Хван, Х. С. Культура и эмоции. Психология. *Журнал Высшей школы экономики*, 10(2), 2013. 38-65.

⁹ El Ayadi, M., Kamel, M. S., & Karray, F. Survey on speech emotion recognition: Features, classification schemes, and databases. *Pattern Recognition*, 44(3), 2011. 572-587.

yagona kod emas, balki o'zaro bog'langan semiotik kanallar majmui sifatida talqin qilish ilmiy asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Ikkinchidan, emotsional nutqning muhim lingvistik xususiyatlaridan biri uning universallik va madaniy spetsifiklik o'rtasidagi dialektik birlikda namoyon bo'lishidir. Psixologik tadqiqotlarda, xususan, Ekman va uning izdoshlari tomonidan asoslangan asosiy emotsiyalar ya'ni quvonch, g'azab, qo'rquv, qayg'u, hayrat va jirkanish deyarli barcha madaniyatlarda mavjud bo'lib, ular muayyan darajada o'xshash prosodik, leksik va paralingvistik vositalar orqali ifodalanishi qayd etiladi. Biroq ushbu emotsiyalarning ifodalanish intensivligi, ijtimoiy maqbullik darajasi hamda kommunikativ kontekstda qo'llanish strategiyalari madaniyatlar kesimida sezilarli farqlarga ega. Bu esa emotsional nutqni faqat universal biologik asosga ega hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy determinatsiyaga bog'liq murakkab lingvokognitiv tizim sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilidagi emotsional nutq ham o'ziga xos struktural va funksional xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Xususan, tilning agglutinatib tabiati emotsional ma'noning morfologik darajada boy va rang-barang ifodalanishiga imkon yaratadi; keng rivojlangan affiksial tizim esa emotsional ekspressivlikni kuchaytiruvchi muhim lingvistik vosita sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, milliy madaniy kontekst, nutq etiketi va ijtimoiy kommunikativ normalar emotsional ifodaning pragmatik chegaralarini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, o'zbek tilidagi emotsional nutq milliy-lingvomadaniy o'ziga xoslik va umumlingvistik qonuniyatlar sintezida shakllangan murakkab tizim sifatida talqin etiladi.

O'zbek tilidagi emotsional nutqning lingvistik tabiati tahlili shuni ko'rsatadiki, bu hodisa murakkab ko'p qatlamli strukturaga ega bo'lib, uning ifodalanish mexanizmlari til tizimining turli sathlarida integrativ tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, o'zbek tilida emotsional-ekspressiv leksikaning keng va boy qatlami mavjud bo'lib, u nutqda hissiy holatlarning nozik semantik farqlarini aniqlik bilan ifodalash imkonini beradi. Ushbu qatlam metaforik ko'chimlar, obrazli iboralar hamda frazeologik birliklar orqali yanada boyib, emotsional mazmunning intensivligi va ifoda rang-barangligini ta'minlaydi. Natijada, emotsional holatlar nafaqat to'g'ridan-to'g'ri leksik birliklar, balki ko'chma ma'no asosidagi murakkab til konstruksiyalari orqali ham ifodalanadi. Prosodik darajada o'zbek tilidagi emotsional nutqning realizatsiyasi urg'u tizimi, intonatsion kontur o'zgarishlari, nutq tempi hamda pauzalarning funksional va strategik qo'llanilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu prosodik vositalar nutqning emotsional yukini kuchaytirib, kommunikativ ta'sirchanlikni oshiradi hamda adresat tomonidan hissiy mazmunning to'liq idrok etilishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan prosodiya emotsional nutqning fonetik-intonatsion asosini tashkil etuvchi muhim komponent sifatida talqin etiladi.

Uchinchidan, emotsional nutqning kontekstga bog'liqligi uning asosiy pragmatik xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bir xil emotsional holat turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha lingvistik shakllarda ifodalanishi mumkin. Xususan, rasmiy muloqot sharoitida emotsional ekspressivlik ma'lum darajada me'yorlashtirilgan va cheklangan bo'lsa, norasmiy kommunikatsiyada u erkinroq, intensivroq va ochiqroq ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu holat emotsional nutqning ijtimoiy-madaniy va situativ determinantlarga kuchli bog'liqligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, emotsional nutqning dinamik tabiati uning doimiy o'zgaruvchan psixolingvistik jarayon sifatida namoyon bo'lishini anglatadi. Nutq jarayonida emotsional holatlar tez almashinishi, bir emotsiyadan ikkinchisiga o'tish holatlari va ularning kombinatsiyalashuvi kuzatiladi. Bu esa emotsional nutqni statik emas, balki doimiy harakatdagi, transformatsion tizim sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Beshinchidan, emotsional nutqning funksional ko'p qirraliligi uning kommunikativ tizimdagi universal ahamiyatini belgilaydi. U nafaqat hissiy holatni ifodalash, balki ta'sir o'tkazish, ishontirish, baholash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish hamda kommunikativ strategiyalarni amalga oshirish kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Shu bois emotsional nutq fenomeni lingvistik, pragmatik va psixologik jihatdan murakkab integrativ tizim sifatida qaraladi.

XULOSA. Emotsional nutqning lingvistik tabiatini nazariy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, emotsiyalar faqat individning ichki psixologik holatini aks ettiruvchi subyektiv hodisa bo'lib qolmay, balki keng ijtimoiy funksional yuklamaga ega kommunikativ mexanizm sifatida ham faoliyat yuritadi. Ya'ni emotsional ifodalar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, jamiyat ichidagi status va ierarxik tuzilmalarni mustahkamlash, shuningdek, guruhiiy identifikatsiyani shakllantirish va barqarorlashtirish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy globallashtirish jarayonlari va madaniyatlararo kommunikatsiyaning kengayishi emotsional nutq fenomenining ham universal, ham madaniy jihatdan shartlangan xususiyatlarini chuqurroq o'rganish zaruratini kuchaytirmoqda. Bu esa emotsional ifodalarning umumiy insoniy asoslari bilan bir qatorda, muayyan lingvomadaniy tizimlarga xos o'ziga xosliklarini ham ilmiy jihatdan tahlil qilishni talab etadi. O'zbek tilidagi emotsional nutq ham ana shunday dualistik xususiyatga ega bo'lib, uning shakllanishi tilning agglutinativ strukturasi, boy morfologik imkoniyatlari hamda milliy-madaniy kommunikativ an'analar bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мацумото, Д., & Хван, Х. С. Культура и эмоции. Психология. Журнал Высшей школы экономики, 10(2), 2013. 38-65.
2. Изард, К. Е. Психология эмоций. Санкт-Петербург: Питер. 2000.

3. Светозарова, Н. Д. Интонационная система русского языка. Ленинград: Издательство Ленинградского университета. 1982.
4. Caffi, C., & Janney, R. W. Toward a pragmatics of emotive communication. *Journal of Pragmatics*, 22(3-4), 1994. 325-373.
5. Ekman, P., & Friesen, W. V. *Unmasking the Face: A Guide to Recognizing Emotions from Facial Clues*. Los Altos: Malor Books. 2003.
6. El Ayadi, M., Kamel, M. S., & Karray, F. Survey on speech emotion recognition: Features, classification schemes, and databases. *Pattern Recognition*, 44(3), 2011. 572-587.
7. Scherer, K. R. Vocal communication of emotion: A review of research paradigms. *Speech Communication*, 40(1-2), 2003. 227-256.
8. Juslin, P. N., & Laukka, P. Communication of emotions in vocal expression and music performance: Different channels, same code? *Psychological Bulletin*, 129(5), 2003. 770-814
9. Wierzbicka, A. *Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals*. Cambridge: Cambridge University Press. 1999